ANDIJON VILOYATI BALIQCHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 1-noyabr 313-1-18-Q/24 Baliqchi tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonunining 9-bob 39-maddasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2025- yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to′g′risida”gi Qonunining 6-,25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, 2025-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonunining 9-bob 39-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni 2-ilovaga muvofiq

tumandagi 75 ta tashkilotlarda jami xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha soni 5854 nafarni tashkil etadigan quyidagi toifalar uchun 3,9 foiz (288 kishi) miqdorida, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 0,53 foiz (37 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 1,02 foiz (67 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,04 foiz (9 kishi);

nogironlar uchun 3 foiz (144 kishi), yuqorida ko‘rsatilgan ish o‘rinlariga tumanda nogironlar ishga joylashish bo‘yicha kelgusida (nogironlar korxona va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga murojaat qilmaganda ehtiyoj yuqori bo‘lgan toifalar bilan to‘ldiriladi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0,13 foiz (8 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 0,11 foiz (13 kishi);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari 0,10 foiz (10 kishi) jumladan:

-kichik yoshli bolalari bo‘lgan ishlamayotgan ayollar uchun 3 kishi;

-oilaviy maishiy zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar 3 kishi;

-odam savdosi qurbonlari uchun 4 kishi miqdorida ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarorning 1-ilovasi 3-bandida ko‘rsatilgan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydiganshaxslar ishga joylashtirilgan ish o‘rinlari bo‘lajak davrga zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini aniqlashda hisobga olinsin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

muhandislar, iqtisodchilar, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektr va avtoaravacha haydovchisi, tashuvchi, farrosh, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5- dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va

zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilsin;

muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu qarorning 2-ilovasida keltirilgan toifalarga mansub bo‘lgan shaxslarni ishga ortiqcha olgan xar bir fuqaro uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari

miqdorida grantlar ajratilsin, grand ajratishni nazorat qilish tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (B.Akbarov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (B.Akbarov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ijrosi ta’minlansin.

8. Mazkur qaror “G‘alaba” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror 2025-yil 1- yanvar kunidan kuchga kiritilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman xokimining 2024-yil 13-oktabr kungi 128-1-18-Q/23- sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Baliqchi tuman hokimi **J.Abdurayimov**

Baliqchi tuman hokimining
2024-yil 1-noyabrdagi
313-1-18-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Kelishildi:

Andijon viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va
Bandlik Bosh boshqarmasi boshlig‘i: A.Nurmatov

Baliqchi tuman hokimining birinchi
o‘rinbosari: M.Nurmatov

Baliqchi tuman Kambag‘allikni qisqartirish va
Bandlikka ko`maklashish bo‘limi boshlig‘i: B.Akbarov

Baliqchi tuman hokimligi Bosh
yuristkonsult: A.Ortiqov

Baliqchi tuman hokimining
2024-yil 1-noyabrdagi
313-1-18-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Baliqchi tumanida Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish maqsadida 2025 yil uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlarining

T A Q S I M O T I

№	Topshiriq berilgan korxona, tashkilot vamuassasa nomi	STIR (INN) raqami	Ularda ishlovchila rsoni	Band qilingan ish o'rinlari soni *		Shundan																			
						yolg'iz ota, yolg'iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko'p bolali ota-onalar		ta'lim muassasalarini tugatgan yoshlar		muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar		Nogironlar **			Pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar		jazoni o'tash muassasalaridan bo'shatilgan, jazoni o'tayotgan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko'rilgan shaxslar		ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari		Shundan				
												ishlayotgan nogironlar	keyingi yil uchun zahira o'rinlar soni							safarbarlik chaqiruvi zaxirasiga kiritilgan shaxslar	kichik yoshli bolalari bo'lgan ishlamayotgan ayollar	atrofdagilar uchun xavfli bo'lmagan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar bilan og'riyotgan shaxslar	oilaviy maishiy zo'ravonlik natijasida jabrlanganlar	Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar
				soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%					
Baliqchi tumani bo'yicha jami:			5854	288	3,9	37	0,53	67	1,02	9	0,04	52	144	3	8	0,13	13	0,11	10	0,10	0	3	0	3	4
1	Madaniyat bo'limi	200261880	55	2	3,6%	0	0,0%	1	1,8%		0,0%	2	0	4%		0,0%	1	1,8%	0	0,0%					
2	Baliqchi TYFUK	200260470	70	5	7,1%	0	0,0%	1	1,4%	1	1,4%	0	0	0%		0,0%	3	4,3%	0	0,0%					
3	Obodonlashtirish bo'limi	200261858	252	12	4,8%	0	0,0%	2	0,8%	2	0,8%	6	2	3%	0	0,0%	4	1,6%	2	0,8%				1	1
4	Baliqchi tumani tibbiyot birlashmasi	206945199	1510	77	5,1%	10	0,7%	20	1,3%	5	0,3%	8	37	3%	0	0,0%	3	0,2%	2	0,1%		1		1	0
5	Irrigatsiya bo'limi	305086364	62	1	1,6%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	1	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
6	№6 DIMI	202378417	65	2	3,1%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	1	1	3%		0,0%	0	0,0%	1	1,5%					1
7	№12 DIMI	202319869	64	2	3,1%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	3%	0	0,0%		0,0%	0	0,0%					
8	19-bolalar musiqa va san'at maktabi	203149724	57	2	3,5%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
9	Sport maktabi	207238981	100	2	2,0%	0	0,0%	0	0,0%	0	0,0%	1	2	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
10	№ 1 o'rta maktab	203113413	73	3	4,1%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	2	1	4%		0,0%	1	1,4%	1	1,4%					1
11	№ 2 o'rta maktab	203116947	90	4	4,4%	0	0,0%	1	1,1%		0,0%	0	3	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
12	№ 3 o'rta maktab	203116930	80	3	3,8%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	3	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
13	№ 5 o'rta maktab	203113420	98	6	6,1%	0	0,0%	2	2,0%		0,0%	0	3	3%		0,0%		0,0%	1	1,0%					1
14	№ 6 o'rta maktab	203127592	105	3	2,9%	0	0,0%	0	0,0%	1	1,0%	2	2	4%	0	0,0%		0,0%	0	0,0%					
15	№ 7 o'rta maktab	203116923	80	4	5,0%	1	1,3%	0	0,0%		0,0%	1	2	4%	1	1,3%		0,0%		0,0%					
16	№ 9 o'rta maktab	203116954	95	4	4,2%	1	1,1%	0	0,0%		0,0%	0	3	3%		0,0%	0	0,0%		0,0%					
17	№ 10 o'rta maktab	203116986	65	3	4,6%	1	1,5%	0	0,0%		0,0%	0	2	3%	0	0,0%		0,0%	0	0,0%					
18	№ 11 o'rta maktab	203116962	55	4	7,3%	1	1,8%	1	1,8%		0,0%	1	1	4%	1	1,8%		0,0%	0	0,0%					
19	№ 12 o'rta maktab	206887714	61	4	6,6%	1	1,6%	1	1,6%		0,0%	0	2	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
20	№ 13 o'rta maktab	203113405	65	2	3,1%	0	0,0%	1	1,5%		0,0%	1	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
21	№ 14 o'rta maktab	203123471	144	4	2,8%	1	0,7%	1	0,7%		0,0%	3	2	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
22	№ 15 o'rta maktab	206887722	33	2	6,1%	0	0,0%	2	6,1%		0,0%	1	0	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
23	№ 17 o'rta maktab	206887739	60	2	3,3%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
24	№ 18 o'rta maktab	206887746	44	3	6,8%	1	2,3%	0	0,0%		0,0%	0	2	5%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
25	№ 19 o'rta maktab	203116994	65	3	4,6%	1	1,5%	1	1,5%		0,0%	1	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
26	№ 20 o'rta maktab	206887707	48	3	6,3%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	4%		0,0%		0,0%	1	2,1%		1			
27	№ 22 o'rta maktab	203123464	66	4	6,1%	1	1,5%	0	0,0%		0,0%	0	2	3%		0,0%	1	1,5%	0	0,0%					
28	№ 24 o'rta maktab	203113302	68	3	4,4%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	3	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
29	№ 25 o'rta maktab	203123424	65	2	3,1%	0	0,0%	1	1,5%		0,0%	1	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
30	№ 26 o'rta maktab	203117122	32	2	6,3%	0	0,0%	1	3,1%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
31	№ 27 o'rta maktab	203985215	54	3	5,6%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	4%	0	0,0%		0,0%	1	1,9%		1			
32	№ 28 o'rta maktab	206887761	45	3	6,7%	0	0,0%	1	2,2%		0,0%	0	2	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
33	№ 29 o'rta maktab	203113286	55	2	3,6%	1	1,8%	0	0,0%		0,0%	1	1	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
34	№ 31 o'rta maktab	203113397	65	4	6,2%	1	1,5%	1	1,5%		0,0%	0	2	3%	0	0,0%		0,0%	0	0,0%					
35	№ 32 o'rta maktab	203123417	57	3	5,3%	0	0,0%	1	1,8%		0,0%	0	2	4%	0	0,0%		0,0%	0	0,0%					
36	№ 33 o'rta maktab	206887785	31	2	6,5%	0	0,0%	1	3,2%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
37	№ 35 o'rta maktab	203113380	95	3	3,2%	1	1,1%	0	0,0%		0,0%	1	2	3%	0	0,0%		0,0%	0	0,0%					
38	№ 36 o'rta maktab	203117114	87	6	6,9%	2	2,3%	1	1,1%		0,0%	0	3	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
39	№ 37 o'rta maktab	203113294	44	3	6,8%	0	0,0%	1	2,3%		0,0%	0	2	5%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
40	№ 38 o'rta maktab	203113365	43	3	7,0%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	5%	1	2,3%		0,0%	0	0,0%					
41	№ 39 o'rta maktab	203117004	85	3	3,5%	1	1,2%	0	0,0%		0,0%	1	2	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
42	№ 40 o'rta maktab	203113334	100	4	4,0%	0	0,0%	1	1,0%		0,0%	2	1	3%	1	1,0%		0,0%	1	1,0%				1	

43	№ 41 o'rta maktab	203113326	33	2	6,1%	1	3,0%	0	0,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
44	№ 43 o'rta maktab	203116915	33	2	6,1%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
45	№ 45 o'rta maktab	203113319	59	4	6,8%	1	1,7%	0	0,0%		0,0%	0	2	3%	1	1,7%		0,0%	0	0,0%					
46	№ 46 o'rta maktab	206887818	56	3	5,4%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	4%	1	1,8%		0,0%	0	0,0%					
47	№ 50 o'rta maktab	203113341	58	2	3,4%	0	0,0%	2	3,4%		0,0%	3	0	5%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
48	№ 52 o'rta maktab	206887840	33	2	6,1%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
49	№ 55 o'rta maktab	207304267	33	2	6,1%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
50	№ 56 o'rta maktab	309804534	36	2	5,6%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	6%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
51	1-son xunar maktabi	200261969	55	3	5,5%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	4%	1	1,8%		0,0%	0	0,0%					
52	2-son xunar maktabi	207020424	66	2	3,0%	0	0,0%	0	0,0%		0,0%	0	2	3%		0,0%		0,0%		0,0%					
53	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	206933474	65	4	6,2%	1	1,5%	1	1,5%		0,0%	0	2	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
54	№2 maktabgacha ta'lim muassasasi	207003515	33	2	6,1%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
55	№3 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057052	52	3	5,8%	1	1,9%	0	0,0%		0,0%	0	2	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
56	№7 maktabgacha ta'lim muassasasi	207003523	59	3	5,1%	0	0,0%	1	1,7%		0,0%	1	1	3%	1	1,7%		0,0%	0	0,0%					
57	№8 maktabgacha ta'lim muassasasi	207003530	33	1	3,0%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	1	0	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
58	№9 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057084	33	2	6,1%	1	3,0%	1	3,0%		0,0%	2	0	6%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
59	№10 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057091	33	2	6,1%	1	3,0%	1	3,0%		0,0%	2	0	6%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
60	№12 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057116	50	3	6,0%	0	0,0%	2	4,0%		0,0%	1	1	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
61	№14 maktabgacha ta'lim muassasasi	207003554	43	3	7,0%	0	0,0%	1	2,3%		0,0%	0	2	5%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
62	№17 maktabgacha ta'lim muassasasi	207003586	33	2	6,1%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
63	№18 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057124	33	2	6,1%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
64	№20 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057148	33	2	6,1%		0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
65	№21 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057155	46	2	4,3%	0	0,0%	1	2,2%		0,0%	1	1	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
66	№22 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057163	33	2	6,1%		0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
67	№23 maktabgacha ta'lim muassasasi	207003594	33	3	9,1%	1	3,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
68	№24 maktabgacha ta'lim muassasasi	207003602	48	2	4,2%	1	2,1%	0	0,0%		0,0%	1	1	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
69	№26 maktabgacha ta'lim muassasasi	207057187	33	2	6,1%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
70	№28 maktabgacha ta'lim muassasasi	207003626	46	2	4,3%	0	0,0%	1	2,2%		0,0%	1	1	4%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
71	№29 maktabgacha ta'lim muassasasi	305502043	33	2	6,1%	0	0,0%	1	3,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
72	№30 maktabgacha ta'lim muassasasi	305502874	33	2	6,1%	1	3,0%	0	0,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
73	№32 maktabgacha ta'lim muassasasi	305502154	33	2	6,1%	1	3,0%	0	0,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
74	№33 maktabgacha ta'lim muassasasi	305600855	33	2	6,1%	1	3,0%	0	0,0%		0,0%	0	1	3%		0,0%		0,0%	0	0,0%					
75	№35 maktabgacha ta'lim muassasasi	307843590	33	2	6,1%	1	3,0%	1	3,0%		0,0%	2	0	6%		0,0%		0,0%	0	0,0%					